**Harbiy sohadagi özbek tili qoida va me’yorlariga moslaştirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi atamalar**
**RÖYXATI**

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Аксельбант | Nemis tilidan özlaşgan söz bölib, “yelka” va “zarli boğiç” sözlarining birikmasi hisoblanadi.<br>Faxriy qorovul şaxsiy tarkibi va harbiy paradlar iştirokçilarining tantanali marosimlarda kiyiladigan kiyim elementi bölib, öng yelkaga taqiladi. | **Zarband** | “**Akselbant**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarda qöllanib kelmoqda.<br>“**Zarband**” yangi söz birikmasi atama sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Akselbant sariq rangli va boğiç şakliga ega bölgani sababli ***zarband*** deb nomlanmoqda.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da ***zar*** sözi zardözlikda zarbof tön, zar döppi va boşqa buyumlarni tayyorlaşda işlatiladigan, oltin yoki kumuş suvi yuritilgan, zarlangan ipak yoki sim, ***band*** sözi bir narsaning boşqa biror narsaga qistirib qöyiladigan, ulanadigan qismi, deb ta’riflangan.<br>Yuqoridagi ma’nolardan kelib çiqib, ***zar*** va ***band*** sözlarini qöşib, yangi ***zarband*** atamasi yasalgan. |
| 2. | Амбразура | Fransuz tilidan özlaşgan söz bölib, “tuynuk”, “teşik” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Harbiy inşootlar, minoralarda turli qurollardan öt oçiş uçun möljallangan oçiq yoki tösiladigan tuynuk. | **Şinak** | “**Ambrazura**” atamasi harbiy hamda boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Şinak**” atamasi özbek tilida tarixan qöllanib kelayotgan muqobil söz sifatida uşbu terminologik tuşunçani töliq ifoda etadi.<br>Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham uşbu sözning aynan şu ma’noda qöllangani quyidagi matnda aks etgan: “*Xoja Qozi va beklar mening qoşimga kelib, söz va kengaşni bir* |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | *yerga qöyib, qörğonning burj va **şinak**larini tuzatişga, tartibga solişga kirişdilar*”.<br>Şuningdek, “Özbekiston milliy ensiklopediyasi”da ***şinak*** şahar, qal’a, qörğon kabi inşootlar devoridan duşmanni kuzatiş, undan saqlaniş va öq otiş uçun qilingan maxsus tuynukça; pana joy ma’nosida kelgan.<br>Bundan taşqari, “Özbek tilining izohli luğati”da taniqli adiblarning asarlarida ham uşbu atamadan foydalanilganligi haqida misollar keltiriladi.<br>Xususan, Mirkarim Osimning “Ajdodlarimiz qissasi” asarida “*Qörğon burçidagi **şinak** orasidan uzun böyli, qora soqolli bir kişining otaşin nazari uzoqlarga tikilgan edi*” tarzida qöllangan. |
| 3. | Атака | Fransuz tilidan özlaşgan söz bölib, “hamla qiliş”, “zarba beriş” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Duşmanni yakson qiliş maqsadida kuçli öt oçiş bilan birgalikda qismlar, bölinmalar, qöşilmalar, şuningdek, tank, havo hujumi va ularning guruhlarining jangovar tartibdagi şiddatli harakatidir. | **Hamla** | “**Ataka**” atamasi harbiy hamda boşqa sohalarda, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Hamla**” tilimizda tarixan qöllanib kelayotgan muqobil söz sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Yusuf Xos Hojibning “Qutadğu bilig”, Alişer Navoiyning “Farhod va Şirin”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida ham qöllanilgan.<br>Jumladan, “Qutadğu bilig” asarida *“Laşkar boşliği yovga **hamla** qiladigan bölsa, uyqusini haydab, tun-kun huşyor turişi kerak”* degan jumla mavjud.<br>Şuningdek, “Özbek tilining izohli luğati”da ***hamla*** söziga şunday izoh berilgan: |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | **Hamla** – 1. Kimsa yoki narsa ustiga taşlaniş. 2. Jang, kuraş va şu kabilarda kuç bilan olğa taşlaniş. |
| 4. | Барабан | Rus tili orqali özlaşgan söz bölib, zarb bilan çalinuvçi musiqa çolğusining nomi hisoblanadi.<br>Harbiy sohada saf tayyorgarligi maşğulotlari va safda turib bajariladigan harbiyça harakatlar mobaynida qöllanadigan musiqa çolğu asbobi. | **Dovul** | “**Baraban**” atamasi harbiy hamda boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Dovul**” atamasi eski özbek yozma manbalarida harbiy çolğu asbobi nomi sifatida foydalanilgan söz hisoblanib, uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Qadimda jang maydonlarida askarlarni jangga çorlaş, hujum boşlanganini bildiriş yoki xavfli vaziyatdan ogohlantiriş uçun ham dovul çalingan.<br>Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham bu söz köp uçraydi. Misol: *“Xoqon arığidek berk ariqning yoqasida joylaşiş örniga, ariqdan ötib kelib, Raboti Rözak qişloğining yoniga tep-tekis yerga tuşildi. Qorovul yöq, jang **dovul**ini çaluvçi yöq, ğofil yotgan edik. Tong oldida el şirin uyquda edikim, Qanbar Ali otini qistab borayotib “Yov yetti, turing!” deb qiçqirdi”.*<br>Bundan taşqari, “Özbek tilining izohli luğati”gi **dovul** atamasiga quyidagiça ta’rif berilgan: *“Ovçilar, töpçi qorovullar yoki harbiylar uçun möljallangan, teridan yoki pölatdan yasalgan maxsus noğora”.* |
| 5. | Барабанчи | Harbiy sohada saf tayyorgarligi maşğulotlari va safda turib bajariladigan harbiyça harakatlar mobaynida qöllanadigan musiqa asbobini çaladigan harbiy xizmatçi. | **Dovulçi** | “**Barabançi**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarda qöllanib kelmoqda.<br>“**Dovulçi**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Özbek tilining söz yasaliş qoidalariga köra “biror iş, hunar, kasb bilan şuğullanuvçi kişi” ma’nosini yasaşda *-çi* qöşimçasidan foydalaniş mumkin. Şunga asosan, “dovul çaluvçi, dovul qoquvçi odam” ***dovulçi*** deb ataladi. |
| 6. | Блиндаж | Fransuz tilidan özlaşgan söz bölib, “tösiq bilan yopilgan” degan ma’noni bildiradi.<br>Şaxsiy tarkibni havo, artilleriya, turli otişmalar, ommaviy qirğin qurollaridan himoya qilişga möljallangan pana joy turi, himoyalov yopiq istehkomi. | **Panajoy** | “**Blindaj**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarda qöllanib kelmoqda.<br>“**Panajoy**” yangi atama sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Atama özbek tilidagi ***pana*** va ***joy*** sözlarining qöşilişidan hosil bölgan.<br>“Özbekiston milliy ensiklopediyasi”da ham u ***pana joy*** şaklida qöllanilib, harbiy işda *“kişilarni turli zaharlovçi moddalar, snaryad, aviatsiya bombasi, atom qurollari va hokazodan muhofaza qiliş uçun möljallangan muhandislik inşooti”* ma’nosida qayd etilgan. |
| 7. | Блокада | Ingliz / nemis tillaridan özlaşgan söz bölib, “qamal qiliş”, “qurşab oliş”, “uzib qöyiş” ma’nolarini bildiradi.<br>Mudofaa sohasida harbiy harakatlarni amalga oşirişning alohida şakli bölib, qamal qilinuvçi obyekt taşqi aloqalarga kirişişning oldini oliş maqsadida ajratib | **Qamal** | “**Blokada**” va “**qamal**” atamalari harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Qamal**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Şarafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi mumtoz asarlarda ham uşu atama qöllangan. Jumladan, |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | qöyilişi tuşuniladi. Qamallar: quruqlik qamali, dengiz qamali va havo qamaliga ajratiladi. | | “Zafarnoma” asarida “*Mundin burun Hinduston yuruşining jihatida bayon qilib erdukkim, amirzoda Pir Muhammad Mölton şahriga borib, olti oy* ***qamal*** *qildi”* tarzida qöllangan. Umuman olganda, qamal atamasining aynan harbiy kontekstda blokada örnida qöllanganligini “Özbekiston milliy ensiklopediyasi”dagi uşbu ma’lumotlar ham asoslaydi: *“**Qamal** – şahar, qal’a va şunga öxşaş istehkomlarni işğol qiliş uçun ötkaziladigan harbiy harakatlar usuli. Qadim zamonlardayoq şahar yoki qal’ani tösatdan hujum qilib olib bölmagan taqdirda qamaldan foydalanilgan”.* |
| 8. | Бронежилет | Rus / fransuz tillaridan özlaşgan söz birikmasi bölib, “mustahkam”, “qattiq”, “metin” hamda “nimça”, “kamzul” sözlarining birikişidan kelib çiqqan deb hisoblanadi. Harbiy sohada tanani öq va snaryad parçalaridan himoya qiluvçi vosita-nimça. | **Zirhnimça** | “**Bronejilet**” atamasi normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelinmoqda.<br>“**Zirhnimça**” yangi atama sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Atamaning birinçi qismini *zirh* sözi “Özbek tilining izohli luğati”da *“öq ötmaydigan temir (pölat) moslama”* deb, ikkinçi qismidagi *nimça* sözi *“köylak ustidan, kostyum, kamzul içidan kiyiladigan yengsiz va yoqasiz kalta va ixçam kiyim”* deb izohlangan.<br><br>Şarafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi mumtoz asarlarda ham uşu atama qöllangan. Jumladan, “Boburnoma” asarida *“Bir kuni laşkar ğuli, öng qanot va çap qanoti batamom zirhli kiyimlar kiyib, otlarga* |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | *ham zirhli yopinçiqlar solib, şaharga yaqinroq borilsin, degan farmon böldi.”* tarzida qöllangan.<br>Yangi atama özbek tilining söz yasalişi qoidalariga muvofiq keladi va bronejilet atamasi ma’nosini ifodalaydi. |
| 9. | Блокпост | Rus tilidan özlaşgan söz birikmasi bölib, “tösiq”, “mustahkam”, “zarbadan himoya” hamda “rioya etiş”, “tartiblaş”, “nazorat” sözlarining birikişidan kelib çiqqan deb hisoblanadi.<br>Harbiy sohada qurollangan qöriqçilar yoki maxsus texnikalar bilan mustahkamlangan tösuvçi va nazorat-ötkazuvçi joy ma’nosida qöllanadi. | **Tösiqpost** | “**Blokpost**” atamasi normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelinmoqda.<br>“**Tösiqpost**” atama sifatida ***tösiq*** va ***post*** sözlarini qöşiş orqali özbek tilida yangi yasalib, uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi. |
| 10. | Вещмешок | Rus tilidan özlaşgan söz birikmasi bölib, “narsa”, “buyum” hamda “qop”, “xalta” sözlarining birikişidan kelib çiqqan deb hisoblanadi.<br>Harbiy sohada zarur yuklarni özi bilan birga olib yuriş uçun möljallangan xalta ma’nosida qöllanadi. | **Yukxalta** | “**Veşmeşok**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Yukxalta**” birikmasi atama sifatida yangi yasalib, uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Uşbu atama özbek tilining söz yasaş qoidalariga muvofiq ***yuk*** hamda ***xalta*** sözlari birikişidan hosil bölgan. |
| 11. | Гауптвахта | Nemis tilidan özlaşgan söz birikmasi bölib, “boş qorovul” degan ma’noni bildiradi.<br>Harbiy sohada hibsga olingan harbiy xizmatçilarni tutib turiş uçun möljallangan maxsus bino ma’nosida qöllanmoqda. | **Bandixona** | “**Gaupvaxta**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Bandixona**” birikmasi yangi atama sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | “Özbek tilining izohli luğati”da *“Asirlar, tutqunlar saqlanadigan, qamab qöyiladigan joy”* deb ta’riflanadi. |
| 12. | Горн | Rus tilidan özlaşgan söz birikmasi bölib, “misdan yasalgan puflab çalinadigan musiqa asbobi” nomi hisoblanadi.<br>Harbiy orkestrlarda hamda maxsus çorlov, çaqiruv uçun foydalaniladi. | **Burğu** | “**Gorn**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Burğu**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi. Atama tilimiz tarixida aynan harbiy soha bilan boğliq manbalarda köp uçraydi. Jumladan, Şarafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida *“Tikrit qal’asiga yettilar va naqqora va kavs va **burğu** çalib, suron solib, hazrat uçun qal’a ötruvsida oq uy va çodirlar tiktilar”* tarzida qöllangan.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da ham ***burğu*** karnay yoki surnay şaklidagi qadimiy çolğu asbobi ekanligi qayd qilingan. |
| 13. | Горнчи | Musiqa asbobini çaluvçi harbiy xizmatçi. | **Burğuçi** | “**Gornçi**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Burğuçi**” yangi atama sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Özbek tilining söz yasaliş qoidalariga köra “biror iş, hunar, kasb bilan şuğullanuvçi kişi” ma’nosini ifodalaşda *-çi* qöşimçasidan foydalaniladi. Şunga asosan, “burğu çaluvçi odam”ni ***burğuçi*** deb ataş mumkin. |
| 14. | Диверсия | Lotin tilidagi “diversio” sözidan özlaşgan bölib, “diqqatni tortiş”, “çalğitiş”, “kelişmovçilikni yuzaga keltiriş” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Hozirda duşman e’tiborini asosiy | **Qöporuvçilik** | “**Diversiya**” va “**qöporuvçilik**” atamalari harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Qöporuvçilik**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | operatsiyadan çalğitib, uni zaiflaştirişga qaratilgan harakat.<br>U portlatiş, öt qöyiş yoki boşqa şaklda buzib ötiş yoki şikastlantiriş, yoppasiga zaharlaş yoki epidemiya va epizootiya tarqatiş (hayvonlarga kasallik yuqtiriş) va h.k. ma’nolarda işlatilib kelinmoqda. | | “Özbek tilining izohli luğati”da qöporuvçilik atamasiga *“Biror mamlakatning harbiy va davlat ahamiyatiga ega bölgan obyektlarini buziş, vayron qiliş maqsadida amalga oşirilgan (oşiriladigan) işlar; qöporiş işlari; diversiya”* deb izoh berilgan. |
| 15. | Диверсант | Atama qöporuvçilikni amalga oşiruvçi şaxslarga nisbatan qöllanadi. | **Qöporuvçi** | “**Diversant**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Qöporuvçi**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da qöporuvçi atamasiga *“Qöporuvçilik bilan şuğullanuvçi şaxs, diversiyaçi, diversant”* deb ta’rif berilgan. Şu bois özbekça matnlarda ***qöporuvçi*** atamasini qöllaş mumkin. |
| 16. | Дубинка | Rus tilidan özlaşgan söz bölib, “yoğoçdan işlangan maxsus tayoq” degan ma’noni bildiradi.<br>Harbiy sohada ruxsat etilgan xizmatçilar yonida olib yuradigan maxsus rezinadan yasalgan tayoq. | **Darra** | “**Dubinka**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>**Darra** atamasi tilimizda tarixan qöllanib kelingan muqobil söz sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da *“Xon-amirlar davrida jazoga mahkum etilgan kişilarni jazolaş uçun qayişdan örib yoki tikib yasalgan qalin enli qamçi”* deb ta’rif berilgan. |
| 17. | Дозор | Rus tilidan özlaşgan söz birikmasi bölib, “kuzatiş”, “qaraş” ma’nosini bildiradi.<br>Harbiy sohada ilğor xabarçilar | **Erovul** | “**Dozor**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Erovul**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi. Atama tilimiz |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | guruhi – duşman va hudud haqida ma’lumotlar izlab topiş uçun möljallangan jangovar bölinma ma’nosida qöllanmoqda. | | tarixida aynan harbiy soha bilan boğliq manbalarda köp uçraydi.<br>Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abulğoziy Bahodirxonning “Şajarayi turk” kabi asarlarida ham uşu atama qöllangan.<br>Jumladan, “Şajarayi turk” asarida *“Xon sultonni tirik tuta körung teb Ökar Qaljav va Kutur Qaljavni **erovul** qilib, bir martaba kötarila ot soldilar”* tarzida qöllangan. |
| 18. | Кокарда | Fransuz tilidan özlaşgan söz bölib, “köroz pati, toji” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Harbiy sohada boş kiyimga qadaladigan maxsus nişon ma’nosida keladi. | **Jiğa** | “**Kokarda**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Jiğa**” atamasi qadimda boş kiyimiga taqiladigan narsa ma’nosida qöllangan bölib, tuşunçani qayta tiklaydi hamda boş kiyimga qadaladigan maxsus nişon ma’nosini ifodalay oladi.<br>Özbek xalq oğzaki ijodi namunalaridan “Alpomiş” dostonida bu söz *“Alplarning zöri Kökaldoş ekanini bildi: zörlik nomiga boşida tilla **jiğa**si bor edi”*, Alişer Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida *“Boşida tikanlardin erdi guruh, / Şahona **jiğa**dek anga berdi şukuh”* tarzida ifodalangan.<br>Şuningdek, “Özbek harbiy terminologiyasi” kitobida quyidagiça izoh bor: *“Dubulğalar ba’zan qizil rangda tayyorlangan va ularga ... pari-ötoğa, ya’ni **jiğa** yoki turli rangdagi matolardan tikilgan bayroqça qadalgan”*.<br>Bundan taşqari, Turk xoqonligida hokimiyat va hukmdorlik ramzlari ot, unvon, ötov / hukmdor çodiri, örda, taxt / örunluq, tuğ, bayroq, dovul, **jiğa**, kamar, qiliç, yoy, xanjar, qamçi, tamğa kabi unsurlar ekanligi |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | ilmiy tadqiqotlardan ma’lum. Hozirda qozoq, qirğiz va boşqa turkiy xalqlarda ham jiğa atamasi saqlanib qolgan. |
| 19. | Котелок | Lotin tilidagi “catillus” sözidan olingan bölib, “loy idiş” degan ma’noni bildiradi.<br>Harbiy sohada uruş şaroiti, harbiy yiğinlari vaqtida xizmatçilar ovqat solib yeydigan, zarur hollarda pişiriş uçun idiş. | **Qozonça** | “**Kotelok**” atamasi atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Qozonça**” atamasi tilimizda tarixan qöllanib kelingan muqobil söz sifatida, şuningdek, ovqat solib yeyiş hamda pişiriş bilan boğliqligi uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oliş imkonini beradi.<br>Özbek tilida *-ça* qöşimçasi kiçraytiriş, erkalaş ma’nosini bildiruvçi şakl yasovçi (luğaviy şakl yasovçi) hisoblanadi.<br>Şunga asosan ***qozon*** söziga ***-ça*** qöşimçasini qöşiş orqali ***qozonça*** sözi yasalgan. |
| 20. | Мишень | Rus tilidan özlaşgan söz bölib, “belgi”, “muhr” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Harbiy sohada qurol moslamasida hamda harbiy yiğinlari vaqtida möljalga olinadigan moslama-nişon ma’nosida keladi. | **Nişon** | “**Mişen**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Nişon**” atamasi özbek tilida öq uzib möljalga olinadigan (qöyilgan) narsa ma’nosida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Eski özbek tiliga oid matnlarda ham ***nişon*** sözi aynan ***mişen*** ma’nosida qöllanilgan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, asarlarida *“Öqni juda yaxşi otar edi. Ilvasinga patli va patsiz öqlari köp hollarda tegardi. **Nişon** uçun qöyilgan qovoqni maydonning u boşi, bu boşidan kelib ham aksar hollarda urar”* tarzida ifodalangan. Hozirgi özbek tilida ham uşbu atamadan foydalanib kelinmoqda. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| 21. | Окоп | Rus tilidan özlaşgan söz bölib, “qaziş”, “kavlaş” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Şaxsiy tarkib va jangovar texnika uçun öt oçiş hamda himoyalaniş marrasi bölib, oddiy panoh sifatida xizmat qiluvçi oçiq turdagi istehkom. | **Xandaq** | “**Okop**” atamasi atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Xandaq**” atamasi Özbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, şuningdek, idoraviy va normativ-huquqiy hujjatda qöllanib kelinmoqda.<br>“**Xandaq**” atamasi qadimgi manbalarda, ayniqsa, harbiy soha bilan boğliq matnlarda köplab qöllangani uçun muqobil söz sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Şarafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abulğoziy Bahodirxonning “Şajarayi turk” asarlarida ham uşbu atama qöllangan. Jumladan, “Zafarnoma” asarida *“Çahorşanba kuni sohibqiron mansur çeriki bila anda yetib, taşqaridagi boğlarni buzub, tomlarini yiqib, **xandaq** qazib tuştilar”* tarzida qöllangan.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da xandaq atamasiga *“Öqlardan, bomba yoki snaryad parçalaridan saqlaniş uçun qaziladigan ensiz, tor çuqurlik, okop”* deb izoh berilgan. |
| 22. | Противогаз | Rus tili orqali özlaşgan söz bölib, “gazga qarşi” ma’nosini bildiradi.<br>Harbiy sohada zaharlovçi va radioaktiv moddalardan insonning nafas oliş organlari, közlari va yuzini himoya qiliş uçun möljallangan şaxsiy himoya vositasi ma’nosida | **Gazniqob** | “**Protivogaz**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Gazniqob**” atamasi ***gaz*** va ***niqob*** sözlarining qöşilmasidan hosil bölgan.<br>Mazkur atama tegişli qarorlar hamda idoraviy va normativ-huquqiy hujjatlarda ham *“filtrli gaz* |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | qöllanmoqda. | | *niqoblari”*, *“gazga qarşi niqoblar”*, *“gaz maskalari”* kabi va boşqa şakllarda qöllangan.<br>Uşbu amaliyot yangi “**gazniqob**” atamasining “protivogaz” terminologik tuşunçani ifodalay olişini körsatadi. |
| 23. | Режим | Lotin tilidagi “regimen” (boşqariş) sözi fransuz tiliga özlaşib, “boşqaruv”, “rahbarlik” ma’nolarini bildiradi.<br>Harbiy sohada qöriqlanayotgan harbiy qism, muassasa kabilar hududiga kiriş va çiqib ketiş tartibi, şuningdek, şaxsiy tarkib va qismga (obyektga) taşrif buyurganlarning obyektga kirib-çiqişini tartibga soluvçi qonun-qoidalar tizimi. | **Tartibot** | “**Rejim**” va “**tartibot**” atamalari harbiy va boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Tartibot**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida *“tartiblarning jami, majmui”* ma’nosida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da uşbu atama qadimda “Qöşin tartiboti” iborasida qöllangani qayd etilib, Oybekning “Navoiy” romanidan quyidagi misol keltirilgan: *“Bu yerda sergaklik va ğayrat bilan qöşin **tartibot**ini kuzatib turdi”.* |
| 24. | Траншея | Fransuz tilidan özlaşgan söz bölib, “ariq”, “xandaq”, “kesma”, “yölak” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Harbiy sohada öt oçiş va duşman nazaridan yaşirin yuriş uçun möljallangan xandaq yölagi ma’nosida işlatiladi. | **Xandaq yölagi** | “**Tranşeya**” atamasi harbiy va boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Xandaq yölagi**” birikmasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Çunki ***xandaq***larni bir-biri bilan boğlaş uçun ***yölaklar*** qazilgan. Qöllanişiga köra ikki sözning |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | birlaşişidan hosil qilingan ***xandaq yölagi*** birikmasi ***tranşeya*** atamasining ma’nosini töliq ifodalay oladi. |
| 25. | Тревога | Rus tilidan özlaşgan söz bölib, “xavotir”, “taşviş” degan ma’nolarni bildiradi.<br>Harbiy sohada qismni, kemani jangovar vazifani bajarişga tayyorlaş maqsadida zudlik bilan jangovar şaylikka keltiriş ma’nosini bildiradi. | **Bong** | “**Trevoga**” atamasi harbiy va boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Bong**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>Qadimgi turkiy yozma manbalarda uşbu atama *“bong urildi”* şaklida qöllanganligi matnlardan ma’lum. Jumladan, Şarafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida “bong” atamasi “çaqiriq”, “sergaklik”, “uyğotiş” ma’nolarida ifodalangan. “Özbek tilining izohli luğati”da ham uşbu sözining “hayqiriq”, “qönğiroq”, “çaqiriq” kabi ma’nolarni ifodalaşi qayd etilgan. |
| 26. | Тренчик (ҳарбий бош кийим занжир боғи) | Rus tilidan özlaşgan söz bölib, biror narsani (miltiq, töpponça, boş kiyim) bir-biriga boğlaş uçun işlatiladigan kiçik tasma, boğiç degan ma’nolarni bildiradi.<br>Harbiy sohada harbiy boş kiyimning old qismidagi zanjir ma’nosida işlatiladi. | **Zanjirboğ** | “**Trençik**” atamasi harbiy sohada, içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Zanjirboğ**” birikmasi atama sifatida özbek tilida ***zanjir*** va ***boğ*** sözlarining qöşiluvidan yasalgan bölib, uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>“Özbek tilining izohli luğati” da “boğ” sözi “*Boğlaş uçun xizmat qiladigan narsa va uning boğlangan joyi, tuguni; boğiç”* ma’nosida qöllanişi haqida ma’lumot berilgan. Şu nazarda tutilib, ***zanjir*** va ***boğ*** sözlarini qöşib, ***zanjirboğ*** atamasi yasalgan. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| 27. | Трибунал | Lotin tilidagi “tribunalis” sözidan özlaşgan bölib, “yuksak minbar”, “hukm qiliş” ma’nolarini bildiradi.<br>Harbiy sohada sud hay’ati; favqulodda yoki ixtisoslaşgan sud, unda asosan harbiy jinoiy işlar köriladi. | **Harbiy mahkama** | “**Tribunal**” atamasi harbiy sohada, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Harbiy mahkama**” birikmasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da ***mahkama*** sözining *“hukm qiluvçi, hukm çiqaruvçi idora; sud”* ma’nosida qöllanişi bildirilgan.<br>Asosan, harbiy sohaga doir jinoiy işlar körib çiqiladigan sud bölganligi sababli ***harbiy mahkama*** sifatida qöllaş ma’noni aniqroq ifodalaydi. |
| 28. | Фуражка | Rus tilidan özlaşgan söz bölib, harbiy boş kiyim ma’nosini bildiradi. | **Börk** | “**Furajka**” atamasi harbiy va boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Börk**” atamasi qadimgi turkiy yozma manbalarda boş kiyimi ma’nosida köplab matnlarda uçraydi. Jumladan, Mahmud Koşğariyning “Devonu luğotit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadğu bilig”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida ham qöllanganini köramiz. Misol uçun “Devonu luğotit turk” asarida *“tatsiz turk bölmas, başsiz **börk** bölmas”* maqolida, “Boburnoma”da *“Dubulğa **börk**idan biror tori kesilmaganiga qaramasdan, boşim xiyla yaralandi”* matnida boş kiyimi ma’nosida istifoda etilgan. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | | | “Özbek tilining izohli luğati”da *“Oşlangan qoraköl teridan silindr şaklida tikilgan boş kiyim, telpak”* ma’nosini ifodalaşi qayd etilgan. |
| 29. | Фортификация | Lotin tilidagi “fortificatio” söz birikmasida özlaşgan bölib, “mustahkam, kuçli bölmoq”, ma’nosini bildiradi. Harbiy sohada:<br>a) fortifikatsiyali inşootlarni quriş va harbiy maqsadda foydalanişni öz içiga olgan harbiy-muhandislik sohasi;<br>b) fortifikatsiyali inşootlar – jangda qurol va harbiy texnikani közdan yaşiriş, ulardan yanada unumliroq foydalaniş, boşqaruv punktlarini joylaştiriş, şuningdek, qöşinlarni, aholi hamda front ortidagi obyektlarni duşman qurollari zarbasidan himoya qiliş uçun qurilgan inşootlar. | **Istehkom** | “**Fortifikatsiya**” atamasi harbiy va boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda.<br>“**Istehkom**” atamasi ham rasmiy hujjatlarda *“Mudofaa istehkomi”, “Suv yöllaridagi istehkomlar”* kabi şakllarda qöllangan örinlar mavjud.<br>Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida *“Panipatda askarlarning yon-atrofiga arava va şoxlardan tösiq yasab, xandaqlar qazib **istehkom** qurayotgan paytimiz Darveş Muhammad sorbon:*<br>*“Bunday ehtiyotkorlik bilan himoyalanayotganimizda u bizga qarşi kelişga qanday imkon topadi”, deb aytdi”* matnida ham aynan mudofaa istehkomi haqida ma’lumot berilmoqda.<br>“**Istehkom**” atamasi “Özbek tilining izohli luğati”da *“Mudofaa, duşmandan saqlaniş uçun qurilgan mustahkam tösiq, ğov, devor, qal’a va şu kabilar”* ma’nosini bildirişi aytilgan. |
| 30. | Шеврон | Fransuz tilidan özlaşgan atama bölib, dastlab “balandliklar, uylar, inşootlar tom qismidagi belgi” yoki “V” şakli ma’nolarini bildirgan. | **Uqa** | “**Şevron**” atamasi harbiy va boşqa sohalarda, normativ-huquqiy va içki idoraviy hujjatlarida qöllanib kelmoqda. |

| T/r | Çet tillarga oid söz yoki atama | Söz yoki atamaning ma’nosi | Rasmiy muomalaga kiritilayotgan şakli | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | | Harbiy kiyimning turli qismlari, asosan, yenglaridagi yopiştirma uqa. | | “**Uqa**” atamasi ham rasmiy hujjatlarda *“zar uqalar”, “uqa”* kabi şakllarda qöllangan örinlar mavjud.<br>“Özbek tilining izohli luğati”da *uqa* atamasi qadimda qöllangan atama ekanligi, kiyimga bezak beriş uçun çetiga tikib, qadab qöyiladigan mato ma’nosini bildirişi aytilgan.<br>Şundan kelib çiqib, “**uqa**” atamasi özbek tilidagi muqobil sifatida uşbu terminologik tuşunçani ifodalay oladi, deyiş mumkin. |